

NOMUSTAQIL EGA VAZIFASIDAGI IKKI VALENTLI BIRLIKLAR KOMPONENT TAHLILI

G. Asadova¹

Annotatsiya:

Maqolada ingliz tili sodda gap qurilmalari tarkibida ikki valentli nomustaqil ega (noyadroviy tobe predikatlanuvchi – $\bar{N}DP_1$) komponentlarning sintaktik-morfologik xususiyatlari hamda sintaktik aloqaga kirisha olish imkoniyatlari bayon etilgan. Gap komponentlarining sintaktik aloqalari yunksion modelda, sintaktik tarkibi va morfologik ifodalanishi komponent tahlil yordamida ochib berilgan. Ushbu maqola funksional sintaksis bilan shug'ullanuvchilar uchun qiziqarli bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: nomustaqil ega, noyadroviy tobe predikatlanuvchi, noyadroviy predikativ aloqa, subordinativ aloqa, komponent tahlil, yunksion model.

doi: <https://doi.org/10.2024/myfssb19>

Kirish

Gap qurilmasida ikki valentli sintaktik birliklarni aniqlashda sintaktik aloqalar soniga e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Gap tarkibida ikki valentli sintaktik birliklar ikki sintaktik aloqa asosida boshqa komponentlar bilan bog'lanib keladi, ya'ni ikki valentli sintaktik birlik yadro predikativ va noyadroviy predikativ, subordinativ, koordinativ aloqalar bazasida vujudga kelishi mumkin.

Mazkur maqolada biz ingliz tili sodda gap qurilmasida nomustaqil ega vazifasida kelgan ikki valentli sintaktik birliklar qatnashgan gaplarni komponentlarga ajratib tahlil qilishga harakat qilamiz. Bunda nomustaqil ega vazifasidagi ikki valentli birliklarning morfologik xususiyatlarini ham ularning boshqa sintaktik birliklar bilan birikish imkoniyatlari yoritib beriladi.

Adabiyotlar sharhi va muhokama

Gap tarkibida nomustaqil ega o'rnida kelgan ikki valentli komponentlar noyadroviy aloqa asosida gapda voqelanadi. R.M.Asadovning ta'kidlashicha, "... subordinativ aloqa bir tomonlama hokim komponentga tobelikni ifodalasa, noyadroviy predikativ aloqa esa ikki komponentga ham bir xil yo'naltiriladi". Yunksion modellarda noyadroviy predikativ aloqa ikki tomonli ko'rsatkichli (\leftrightarrow) bir chiziq bilan beriladi. Ushbu holatni modellashtirish metodi asosida tahlil qilganimizda, ularning gap qurilmasida ikki sintaktik aloqa bazasida ishtirok etishi ayon bo'ladi. Gapda ikki valentli sintaktik birlik yadro predikativ 2 (NP₂-kesim) komponentiga nisbatan tobe hisoblanib, subordinativ aloqa bilan biriksa, o'zidan keyingi kelgan komponentga esa noyadroviy predikativ aloqa yordamida bog'lanadi:

1. Father didn't want me to be a detective (MHCI, 50).
2. That promoted her to add (RGH, 355).
3. They made me scared (MHGI, 56).

Ushbu misollarda uchinchi va to'rtinchi sintaktik birliklar, ya'ni me va to be a detective (1), her va to add (2), me va scared (3) elementlari gap qurilmasida ingliz tili an'anaviy grammatikalarda, xususan, rus inglizshunoslari tomonidan yaratilgan grammatikalarda fe'ning shaxssiz shakllari deb atalishiga binoan "obyektiv predikativ qurilma", deb nomlanib

¹ Asadova Gavhar Teshabayevna, SamDCHTI doktoranti

kelinmoqda. Ushbu obyektiv predikativ qurilmalarga ajralmas bir sintaktik birlik sifatida qaralib, ular murakkab to'ldiruvchi vazifasini bajaradi, deya talqin qilinmoqda. Biroq ingliz tili grammatikasida obyektiv infinitiv qurilmani bunday talqin qilish tilshunoslar o'rtasida hamon bahstlab masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki bu o'rinda ikkinchi va uchinchi komponentlar hamda uchinchi va to'rtinchi komponentlar o'zaro qanday sintaktik aloqalar asosida bog'lanadi, degan haqli savol tug'ilishi tabiiy. Keltirilgan misollarda gap tarkibidagi uchinchi ikki valentli sintaktik birliklar (me, her, me) K.E.Tikotskayaning ta'kidlashicha, "...ikki sintaktik aloqa asosida bog'lanadi".

Nomustaqil ega o'rnida kelgan ikki valentli komponentlar (me, her, me) subordinativ va noyadroviy predikativ aloqalar asosida bog'langanligini isbotlash uchun tushirib qoldirish transformatsiyasi yordamida gapda ishtirok etgan to'rtinchi komponentni, ya'ni fe'ning shaxssiz shaklida kelgan sintaktik birliklarni tushirish mumkin:

- 1) Father didn't want me to be a detective → Father didn't want me....
- 2) That promoted her to add → That promoted her....
- 3) They made me scared → They made me....

Tushirib qoldirish transformatsiyasi natijasiga ko'ra, ushbu gaplar grammatik jihatdan oldingi gaplar mazmuniga yaqindek tuyulsa-da, aslida fe'ning shaxssiz shakllarini tushirish natijasida gaplarda ifodalangan mazmundan to'la qoniqish qiyin. Chunki noyadroviy predikativ aloqa o'ziga xos sintaktik aloqalardan biri hisoblanadi. Shu bois me to be a detective, her to add, me scared sintaktik birikmalaridagi fe'ning noaniqlik shaklini shaxsli shakllarga aylantirish mumkin: me to be a detective → I was a detective; her to add → she adds; me scared → I was scared. Natijada ajratilgan "obyektiv predikativ qurilma" atamasi bilan yuritilgan birliklarning mustaqil gapga aylanishi me, her, me sintaktik birliklar bilan fe'ning shaxssiz shakli o'rtasida noyadroviy predikativ aloqa mavjudligidan dalolat beradi. O'tkazilgan transformatsiya metodi natijasiga ko'ra, obyekt kelishigida kelgan kishilik olmoshlari her, me sintaktik birliklar gap qurilmasida kesim vazifasida kelgan elementlarga nisbatan subordinativ aloqa yordamida bog'lansa, fe'ning shaxssiz shakllari bo'lgan to be a detective, to add, scared komponentlari bilan noyadroviy predikativ aloqa asosida bog'lanishi mavjudligi tufayli her, me – noyadroviy tobe predikativ 1 (ÑDP₁), ya'ni nomustaqil ega sintaktik birligi hisoblanadi. Fe'ning shaxssiz shakllarining differensial sintaktik belgisi noyadroviy predikativ 2 (ÑP₂) komponentidir. Noyadroviy predikativ aloqa yadro predikativ aloqadan gapning markaziy qurilmasini tashkil qila olmasligi bilan farq qiladi.

Keltirilgan (1-3) misollarda ishtirok etgan sintaktik birliklar bir xil yunksion modelga tushadi:

Yu.M. 1

Ushbu (1-4) gaplardagi sintaktik birliklarning differensial sintaktik belgilari ham bir xil:

NP₁ • NP₂ • ÑDP₁ • ÑP₂ K. M. 1

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, gapning komponent modeli faqat differensial sintaktik belgilarni ko'rsatish bilan cheklanadi. Ammo komponentlarning formal tomonini – morfologik xususiyatlarini to'la ifodalamaydi.

Ushbu gaplarning komponent modellarini va morfologik xususiyatlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1) Father didn't want me to be a detective NP₁ . NP₂ . ÑDP₁ . ÑP₂

S Vng Pnob cS

2) That promoted her to add NP₁ . NP₂ . ÑDP₁ . ÑP₂

Pdm Vf Pnob Vinf

3) They made me scared NP₁ . NP₂ . ÑDP₁ . ÑP₂

Pnp Vf Pnob Vp₂

Yuqoridagi komponent modellardan ayon bo'ladiki, keltirilgan gaplar sintaktik tarkibi va sintaktik aloqalari bir xil bo'lsada, ularning morfologik ifodalanishi farq qiladi.

Xulosa

Nomustaqil ega (ÑDP₁) o'rnida kelgan ikki valentli komponentlar asosan otning bosh kelishigi, olmoshning obyekt kelishigi shakllari yordamida ifodalanadi. Ular subordinativ aloqa yordamida bo'lishli yoki inkor shakldagi sof fe'llar, modal fe'lli birikmalar bilan bog'lanadi, noyadroviy predikativ aloqa vositasida esa, harakat va holat fe'llarining infinitiv shakli, bog'lama fe'lli ot, sifat hamda o'tgan zamon sifatdoshi bilan sintaktik munosabatga kirishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Асадов Р.М. *Инглиз тили содда гап қурилмаларида моновалентли ва поливалентли компонентларнинг синтаксем таҳлили*. Фил. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. – Тошкент, 2018. – 25 б.
- [2]. Жигадло В.А., Иванова И.В., Иофик Л.Л. *Современный английский язык: теоретический курс грамматики*. – Москва: Изд-во литер. на иност.языках, 1956. – 350 с.
- [3]. Иванова И.П., Буракова В.В., Почепцов Г.Г. *Теоретическая грамматика современного английского языка*. – Москва: Высшая школа, 1981. – 287 с.
- [4]. Каушанская В.Л. *Грамматика английского языка*. 5-е изд., испр. и доп. – М.: Айрис Пресс, 2008. – 384 с.
- [5]. Мамуров К. *Синтаксемы в позиции зависимого предцизируемого компонента предложения // Лингвистические исследования*. – Москва: АН СССР, ЛОИЯ, 1986. – С. 116-123.
- [6]. Мухин А.М. *Функциональный синтаксис*. – СПб.: Наука, 1999. – 184 с.
- [7]. Сучкова Л.А. *Синтаксическая семантика неопределенных местоимений в современном английском языке*. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ленинград, 1982. – 21 с.
- [8]. Тикоцкая К.Е. *Структура предложений с каузативными глаголами в современном английском языке*. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Минск, 1975. – 24 с.
- [9]. Ашуров Ш. С. *К Проблеме типологии субстанциальных синтаксем (на примере английского и узбекского языков) // Ученый XXI века*. – 2016. – №. 2-5.